

“MUBAYYIN” ASARIDA BOBURNING DINIY-HUQUQIY QARASHLARI: TAHLIL VA TALQIN

Abdusamadova Zarina Hasan qizi

Xavfsizlikni huquqiy ta'minlash yo'nalishi 382-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15378541>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ko'p qirrali merosi, xususan, uning diniy-huquqiy qarashlarini o'zida aks ettirgan “Mubayyin” asari chuqur tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixiy sharoiti, mazmuni, fiqhiy asoslari, badiiy ifoda vositalari va zamonaviy o'quv jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari muallif tomonidan interdisiplinar yondashuv asosida tahlil etilgan. Shuningdek, “Mubayyin”ning turli nashrlari, uning tarjimalari va xalqaro boburshunoslikda tutgan o'rni baholangan. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan madaniy siyosat va Uchinchi Renessans davri bilan bog'liq yondashuvlar Bobur merosini ilm-fan, ta'lim va huquqiy tafakkur kontekstida yangicha talqin etishga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: diniy-huquqiy tafakkur, fiqh asoslari, madaniy meros, huquqiy ong, tarixiy xotira, falsafiy qarashlar, ma'naviy meros, shariat normalari, interdisiplinar yondashuv, ilmiy tahlil, madaniy uyg'onish, renessans g'oyalari.

Аннотация: В настоящей статье проводится углублённый анализ многогранного наследия Захириддина Мухаммада Бабура, в частности его религиозно-правовых взглядов, отражённых в трактате «Мубаййин». Рассматриваются исторические условия создания произведения, его содержание, фикхические основы, художественно-выразительные средства, а также возможности интеграции данного труда в современный образовательный процесс с позиции интердисциплинарного подхода. Также оцениваются различные издания «Мубаййина», его переводы и значение в международном бабуроведении. Подходы, реализуемые в рамках государственной культурной политики Республики Узбекистан и концепции Третьего Ренессанса, служат основой для новой интерпретации наследия Бабура в контексте науки, образования и правовой мысли.

Ключевые слова: религиозно-правовое мышление, основы фикха, культурное наследие, правосознание, историческая память, философские взгляды, духовное наследие, нормы шариата, интердисциплинарный подход, научный анализ, культурное возрождение, идеи ренессанса.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the multifaceted legacy of Zahiriddin Muhammad Babur, with a particular focus on his religious and legal thought as reflected in the treatise Mubayyin. The historical context, content, jurisprudential foundations, artistic expression, and possibilities of integrating the work into modern educational processes are examined through an interdisciplinary approach. The article also evaluates various editions and translations of Mubayyin, as well as its significance in international Babur studies. The study further explores how Uzbekistan's cultural policy and the ongoing Third Renaissance provide a framework for reinterpreting Babur's legacy in the context of science, education, and legal consciousness.

Keywords: religious-legal thought, fiqh foundations, cultural heritage, legal consciousness, historical memory, philosophical views, spiritual legacy, sharia norms, interdisciplinary approach, scientific analysis, cultural revival, renaissance ideas.

Jahon tamaddunida chuqur iz qoldirgan yuksak siymolardan biri sifatida Zahiriddin Muhammad Bobur — shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va harbiy sarkarda sifatida xalqaro miqyosda keng eʼtirof etilgan tarixiy shaxsdir. Ayniqsa, uning “Boburnoma”[1], poetik devonlar, tarixiy-huquqiy risolalar singari asarlari oʻzbek xalqining adabiy-estetik tafakkuri va davlatchilik anʼanalarining shakllanishida muhim oʻrin egallaydi. Shu bilan birga, Bobur ijodi jahon adabiyoti, tarixshunoslik, siyosatshunoslik va sharqshunoslik sohalarida ham chuqur ilmiy qiziqish uygʻotib kelmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur eng avvalo, Hindiston hududida uch asrdan ortiq hukmronlik qilgan Boburiylar saltanatini barpo etgan zabardast Temuriy hukmdor sifatida eʼtirof etiladi. Uning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy-memuar janrida yaratilgan yuksak namuna, balki oʻz davrining siyosiy, geografik, madaniy va maʼnaviy hayotini chuqur aks ettirgan nodir yodgorlik sifatida ham baholanadi. Bobur ijodining huquqiy-nazariy qatlami esa “Mubayyin”[2] asarida oʻz aksini topib, oʻrta asr islom huquqi va adolat tamoyillariga oid tarixiy manba sifatida alohida eʼtiborga loyiqdir.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan soʻng mamlakatimizda ajdodlar merosini chuqur oʻrganish, ularning tarixiy xizmatlarini xalqimiz ongiga singdirish, madaniy xotirani tiklash boʻyicha keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini ilmiy-nazariy tahlil qilish, asarlarini turli tillarda qayta nashr etish va jahon ilmiy muomalasiga olib chiqish yoʻlida salmoqli yutuqlar qoʻlga kiritildi. Shoirning tavallud kuni — 14-fevral sanasining “Adabiyot va ilm-maʼrifat bayrami” sifatida nishonlanishi bu boradagi siyosiy va ijtimoiy yondashuvning amaliy ifodasidir.

Boburshunoslik bugungi kunda mustaqil ilmiy yoʻnalishga aylangan boʻlib, respublika va xalqaro darajadagi koʻplab ilmiy anjumanlar, konferensiyalar, simpoziumlar tashkil etilmoqda. Ularning asosiy maqsadi — Bobur merosini adabiy, tarixiy, siyosiy va maʼnaviy nuqtayi nazardan chuqur oʻrganish, uni zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlar asosida tahlil qilishdir. Ayniqsa, Toshkent va Andijon shaharlarida Bobur haykallarining oʻrnatilishi, Andijonda Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi va “Bobur va jahon madaniyati” kitob muzeyining faoliyati, shuningdek, “Bobur ensiklopediyasi”[3], “Bobur kulliyoti”, “Babur. Baburidy. Bibliografiya”[4] kabi fundamental nashrlarning chop etilishi va “Bobur va dunyo” jurnalining yoʻlga qoʻyilishi — bu boradagi ilmiy-amaliy ishlarning miqyosini koʻrsatadi.

Shu jihatdan qaraganda, 2023-yil 25-yanvarda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi[5] Qaror tarixiy ahamiyatga ega boʻlib, Boburshunoslikni davlat siyosati darajasiga koʻtardi. Qaror doirasida ishlab chiqilgan dastur asosida ilmiy nashrlar, koʻrgazmalar, teatr tomoshalari va xalqaro hamkorlik tadbirlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz “Uchinchi Renessans” davriga yuz tutar ekan, Bobur merosini chuqur oʻrganish va uni yosh avlod tarbiyasida, ilmiy-nazariy faoliyatda samarali qoʻllash dolzarb ilmiy va ijtimoiy vazifalardan biridir. Bobur siymosiga boʻlgan eʼtibor, uning asarlarining targʻiboti va akademik oʻrganilishi, oʻz navbatida, milliy oʻzlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va madaniy uygʻonishni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning boy maʼnaviy-maʼrifiy merosida “Boburnoma”,

“Devon” kabi badiiy, tarixiy va estetik ahamiyatga ega asarlar bilan bir qatorda, uning diniy-huquqiy tafakkurini aks ettiruvchi “Mubayyin” nomli risolasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu asar Bobur Mirzoning shoir va hukmdor sifatidagi salohiyati bilan birga, uning huquqshunos olim, ya’ni fiqh ilmi sohasidagi yetuk bilim egasi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yilda e‘lon qilingan “Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qaror, mamlakatimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb belgilangan yillik bilan uyg‘un tarzda, Bobur ijodiy merosini ta’lim tizimi orqali chuqur o‘rganish va keng ommaga yetkazish vazifasini belgilab berdi [5]. Bu qaror “Mubayyin” singari diniy-huquqiy manbalarni o‘quv dasturlariga tatbiq etish, ularni talaba-yoshlar ongiga chuqur singdirish uchun ilmiy-metodik asos yaratdi.

“Mubayyin” asari Bobur tomonidan hijriy 927-yil (milodiy 1521-yil) atrofida, o‘z farzandlari Humoyun va Komron Mirzolar uchun yozilgan bo‘lib, u islom huquqi – fiqh asoslarini keng bayon etuvchi diniy-nazariy risola hisoblanadi. Ushbu asar besh bo‘limdan iborat bo‘lib, e’tiqod, salot (namoz), zakot, savm (ro‘za) va haj ibodatlariga oid masalalarni keng yoritadi. Bobur asarni masnaviy janrida yozgan bo‘lib, unda fiqhiy bilimlar san’atkorona ifoda, badiiy vositalar va didaktik yondashuvlar bilan mujassam etilgan.

Akademik Sabohat Azimjonovanning qayd etishicha, “Mubayyin” asari yaratilishida Bobur yuqori darajadagi fiqhiy bilimlarga ega bo‘lgan va u o‘z davrining yetuk fiqhiy manbalarini chuqur o‘rgangan. Jumladan, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya”, Imom Buxoriyning “al-Jomi’ as-Sahih”, Imom Moturidiyning “Tawhid”, A. Navoiy asarlaridagi shariatga oid qarashlar, F. Ali Safiy va boshqa mutafakkirlar ijodi Bobur dunyoqarashining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan [6].

“Mubayyin” asari istiqlol yillarida uch bor nashr qilingan: 2000-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyotida, 2011-yilda “Mumtoz So‘z” nashriyotida, va 2020-yilda “Sharq” nashriyoti tomonidan qayta tahrir bilan chop etilgan. Har bir nashrda matn tahririy-tanqidiy yondashuv asosida takomillashtirilgan bo‘lib, asarning didaktik, fiqhiy va poetik jihatlari chuqurroq ochib berilgan [7].

Bugungi kunda “Mubayyin” asarini o‘rganish faqat tarixiy yoki diniy qiziqish doirasidagina emas, balki huquqshunoslik, pedagogika va madaniyatshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida ham dolzarb ilmiy mavzuga aylangan. Ushbu asarning mazmunini yoshlar ongiga singdirish orqali diniy bag‘rikenglik, ma’naviy tozalikka intilish, huquqiy bilimlarning qadimiy ildizlari haqida tushunchalar shakllantirish mumkin.

Ta’kidlash joizki, “Mubayyin” — Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining muhim, biroq hanuz to‘liq ochilmagan qatlamlaridan biri bo‘lib, u fiqhiy tafakkurning badiiy ifoda bilan uyg‘unlashgan noyob namunasi hisoblanadi. Ushbu asarni chuqur tahlil qilish va zamonaviy o‘quv jarayonlariga tatbiq etish, Bobur merosini yanada keng va tizimli o‘rganish uchun mustahkam zamin yaratadi.

“Mubayyin” asarining 2020-yildagi uchinchi nashrini taniqli adib, tarjimon va boburshunos olim Mirzo Kenjabek tayyorlagani bejiz emas [8]. Bu nashr asarning o‘zbek tili taraqqiyotida tutgan o‘rni, ifoda uslubi va diniy-badiiy mazmuni nuqtayi nazaridan yanada mukammal holga keltirilganligiga dalildir. Mazkur asar, bir tomondan, o‘zbek tilida yaratilgan va mumtoz adabiyotimizning shoirlik an‘analarini ifodalovchi nodir manba sifatida qadrlansa, boshqa tomondan, milliy tilimizning so‘z boyligi, poetik mazmuni va diniy istilohlarini o‘zida

mujassamlashtirgan sharqona adabiy meros namunasi sifatida baholanadi.

“Mubayyin” risolasi islomshunoslar, huquqshunoslar, tarixchilar, faylasuflar, tilshunoslar va adabiyotshunoslar uchun ko‘p qatlamli ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borishga imkon beradigan nodir manba hisoblanadi. Uning tahlil va talqini hozirgi kunda interdisiplinar yondashuvda — huquq, dinshunoslik, madaniyatshunoslik va tarixiy-filologik tahlil doirasida faol olib borilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur merosini chuqur o‘rganish nafaqat O‘zbekistonda, balki jahonning ko‘plab mamlakatlarida ham ilmiy e‘tiborni jalb qilmoqda. Xususan, “Mubayyin” asarining nashri va ilmiy muomalaga kiritilishida tarixiy va hozirgi zamon boburshunos olimlarining roli alohida ta’kidlanishga loyiq. Sharq olimlaridan Shayx Zayniddin, Mulla Mir Mahdum Toshkandiy, akademik Sabohat Azimjonova, S. Shukrullayeva, O. Husamboyev, N. Rasulzoda, E. Berezin, A. Samoylovich, F. Ko‘prulu, Tanju Oral Seyhan, Abul Fazl Allomiy, Badooniy kabi olimlarning hissasi yuksak bahoga loyiq. G‘arb tadqiqotchilaridan esa Beveridge, Springer kabi yirik sharqshunoslarning izlanishlari Bobur merosini jahon ilmiy maydoniga olib chiqishda muhim rol o‘ynagan.

Bobur Mirzoning boshqa diniy-falsafiy qarashlari qatorida, uning Xoja Ubaydulloh Ahrorning “Risolai volidiyya” asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgani, so‘ngra bu risolaning tasavvuf ilmi doirasida ilmiy muomalaga kirib kelgani ham e‘tiborga loyiq ilmiy dalildir. Shuningdek, Tehron Milliy kutubxonasidan topilgan “Kulliyot”, Mashhad shahridagi muzeydan olib kelingan “Xatti Boburiy”da ko‘chirilgan Qur’oni Karim nusxasi Boburshunoslikdagi tarixiy ochilishlar sirasiga kiradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati, uning tarixiy xizmati, ijodi va merosining xalqimiz ongida barqaror o‘rin egallashi yo‘lida olib borilayotgan ishlar samara bermoqda. Ayniqsa, 1998-yildan buyon faoliyat yuritayotgan Bobur nomidagi xalqaro jamg‘arma tomonidan ta’sis etilgan Boburshunoslik xalqaro mukofoti ushbu ilmiy yo‘nalishga xalqaro e‘tiborning mustahkam dalilidir.

Mazkur mukofot bilan nafaqat o‘zbekistonlik, balki xorijlik bir qator nufuzli olim va adiblar — masalan, yapon olimi Eije Manoning “Boburnoma” yuzasidan qilgan tadqiqotlari [9], amerikalik tadqiqotchi S. Berkning “Akbarshoh – Boburiylar sulolasining buyuk vakili” nomli asari [10], britaniyalik adiba Rumer Goddenning “Gulbadan” [11], Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” [12] asarlari boburiylar merosini yoritishda ulkan hissa bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu asosda aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xususan, “Mubayyin” singari asarlarni tizimli ilmiy tadqiq etish nafaqat adabiy va tarixiy, balki diniy-huquqiy tafakkurning zamonaviy rivojiga xizmat qiladigan dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaralmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va ilmiy-ma’naviy merosi nafaqat o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini aks ettirishda, balki bugungi kun ilm-fani, huquqi, adabiyoti va madaniyati uchun ham dolzarb metodologik manba sifatida alohida ahamiyatga ega. Boburning “Boburnoma”, “Devon” va ayniqsa, “Mubayyin” kabi asarlari uning ko‘p qirrali shaxsini — shoir, davlat arbobi, tarixchi, fiqhshunos va mutafakkir sifatida har tomonlama yoritadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Boburning “Mubayyin” asari diniy-huquqiy tafakkur, badiiy ifoda va ma’naviy merosning o‘zaro uyg‘unligida yaratilgan noyob namunadir. Unda

o'rta asrlar islom fiqhining asosiy masalalari san'atkorona tilda bayon qilingan bo'lib, bu holat asarni diniy-huquqiy risola bo'lish bilan birga, badiiy adabiyot namunasi sifatida ham o'rganishga imkon beradi. Aynan shu jihatlar uni madaniyatshunoslik, pedagogika, huquqshunoslik va filologiya sohalarda interdisiplinar tadqiqotlar mavzusiga aylantirmoqda.

Boburshunoslikning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib borayotganligi, milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashrlar, anjumanlar, muzeylar, jamg'armalar va targ'ibot ishlari orqali namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilgi qarori asosida Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash, ushbu merosni ta'lim, madaniyat va ilmiy sohalarga chuqur integratsiyalashga keng yo'l ochdi.

Bugungi kunda Bobur siymosi va merosi milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va madaniy uyg'onish jarayonlarida asosiy tamoyillardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni tarixiy-madaniy meros ruhida tarbiyalashda "Mubayyin" kabi asarlarning ta'lim jarayonlariga tatbiq etilishi, milliy identitet va ma'naviy qadriyatlarni chuqur singdirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bois, Bobur merosini, ayniqsa, uning diniy-huquqiy tafakkurini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tizimli o'rganish va uni global ilmiy muomalaga jalb etish — XXI asr ilmi va tafakkuriga muvofiq yondashuv bo'lib, Uchinchi Renessans davrining ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi muhim omillardan biri sanaladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2020. – 448 b.
2. Bobur Z.M. Mubayyin. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2014. – 136 b.
3. Bobur ensiklopediyasi / Tahrir hay'ati: H. Ziyoyev va boshq. – Toshkent: O'zME, 2012. – 672 b.
4. Babur. Baburids. Bibliography / Compiled by A. Ainiy. – Delhi: ICCR, 2010. – 324 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-20-sonli qarori // lex.uz – <https://lex.uz/uz/docs/-6371358>
6. Азимжонова С. Бобуршунослик: илмий изланишлар ва манбалар таҳлили. – Тошкент: Фан, 2005. – 264 б.
7. Kenjabek M. "Mubayyin" nashriga so'zboshi // Bobur Z.M. Mubayyin. – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 5-12.
8. Bobur Z.M. Mubayyin. – Toshkent: Sharq, 2020 (1-nashr: 2000; 2-nashr: 2011). – 136 b.
9. Mano E. The World of Babur: Cultural Memory in the Mughal Empire. – Tokyo: University of Tokyo Press, 2001. – 274 p.
10. Berk S. Akbar the Great: The Emperor of the Mughals. – New York: Oxford University Press, 2004. – 196 p.
11. Godden R. Gulbadan: Portrait of a Princess in Mughal India. – London: Macmillan, 1990. – 182 p.
12. Muhammad Haydar Mirza. Tarikh-i-Rashidi. Transl. by Wheeler M. Thackston. – Cambridge: Harvard University Press, 1996. – 320 p.